

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

7/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Umurqulov Kamoliddin*

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI ..... 9-12

*Muhamedov Asror*

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 13-22

*Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna*

SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA

AMALIYOTLARI ..... 23-30

*Сабитова Коринна Сабировна*

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В  
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ..... 31-37

*Vaxabov Azizjon Xamidovich*

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKALARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA  
ELCHILIK ALOQALARI ..... 38-44

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich*

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH  
MASALALARI ..... 45-51

*Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboevna*

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA TEXNIK SALOHIYATDAN FOYDALANISHNING  
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI ..... 52-57

*Самадов Салоҳиддин Исматович*

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ ..... 58-66

*Хуррамов Азамат Файзуллаевич*

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ ..... 67-74

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich*

YANGI O'ZBEKİSTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVİY O'ZGARİSHLAR  
DİNAMİKASI ..... 75-80

*Mustafaev Alimardon Alijonovich*

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT  
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT ..... 81-89

*Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich*

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" ..... 90-95

*Shadmanov Qurbon*

FRENСIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH  
G'OYALARI ..... 96-101

*Usmonov Farkhod Lapasovich*

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION ..... 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA  
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI ..... 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI ..... 116-121

*Xudoynazarova O'g'lonoj Allamurodovna*

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI ..... 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR  
TASNIFI ..... 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL ..... 133-138

*Aripova Aziza Xasanovna*

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI ..... 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN  
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) ..... 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI ..... 149-153

*Zokirova Шахзода Нодиржон қизи*

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ ..... 154-158

*Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna*

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE ..... 159-163

*Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi*

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI ..... 164-169

*Negmatova Mumtozbegim*

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR ..... 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN  
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI ..... 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY  
MASALALARI ..... 179-183*Сеитниязов Камарбек Параҳатовиҷ*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС  
ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич  
ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА  
НАЗОРАТИ ..... 192-198

*Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li*  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING  
HUQUQIY ASOSLARI ..... 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли  
ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ  
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ  
АСОСЛАРИ ..... 211-218

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna*  
RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'R  
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI ..... 219-222

*Rabbimova Nodira Tashtemirovna*  
FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING  
PEDAGOGICAL APPROACHES ..... 223-227

Сайдова Камола Усканбаевна  
КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
МЫСЛИ ..... 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна  
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАҶНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ ..... 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович  
МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ ..... 240-245

*Buronova Iroda*  
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI ..... 246-250

*Matyakubova Feruza Egamovna*  
ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND  
MODERN EDUCATION ..... 251-254

**09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 10 September 2024

**Accepted:** 15 September 2024

**Published:** 25 September 2024

*Article / Original Paper*

**THE DYNAMICS OF SPIRITUAL CHANGES IN THE IDEOSPHERE OF THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN SOCIETY**

**Sharipov Abdughakimjon Ziyotdinovich**

Professor of Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Science on Philosophy (DSc)

**Abstract.** The philosophical investigation of the dynamics of changes in the ideoSphere of the social development of the new Uzbek society is one of the important topics in social philosophy. This article examines the fact that political and social development of society is impossible without dynamic changes in the ideoSphere. It is also revealed that changes in the ideological sphere of the social development of society are one of the main factors of our national and spiritual revival based on reforms.

**Key words:** dynamics, philosophy, ideoSphere, concept, development, value, reform, democracy

**YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR DINAMIKASI**

**Sharipov Abdughakimjon Ziyotdinovich**

Buxoro davlar Pedagogika 75nstitute falsafa fanlari doktori (DSc), professor

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekiston jamiyatni ijtimoiy taraqqiyoti ideoSferasidagi o'zgarishlar dinamikasining mazmun-mohiyatini falsafiy tadqiq etish ijtimoiy falsafaning dolzARB mavzularidandir. Mazkur maqola jamiyat ideoSferasi taraqqiyoti ideoSferasidagi dinamik o'zgarishlarsiz jamiyatning siyosiy, ijtimoiy yuksalishi mumkin emasligi tadqiq etilgan. Shuningdek, jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti ideoSferasidagi o'zgarishlar dinamikasining milliy tiklanish, milliy yuksalishimizda asosiy omillardan bo'lib kelayotganligi ma'naviy-mafkuraviy islohotlar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** dinamika, falsafa, ideoSfera, konsepsiya, taraqqiyot, qadriyat, islohot, demokratiya

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N10>

**Kirish.** Jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti ideoSferasidagi o'zgarishlar dinamikasi muayyan ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. Hayot falsafasi qonuniyatiga ko'ra, ehtiyoj va zaruriyat bo'limgan joyda hech qanday taraqqiyot bo'lmaydi. Aynan, ehtiyojning o'zi ham ma'naviyatning qay darajada ekanligi bilan belgilanadi. Jamiyat ideoSferasidagi yangilanishlar jarayonida xalqning birlashishi va ezgu maqsad sari safarbar etilishi inson olami bilan bog'liq ehtiyojdir. Shuning uchun ideoSferadagi yangilanish va o'zgarishning har bir bosqichi tarixiy davrlarning o'ziga xos zaruriyat va imkoniyat darajalalari bilan belgilanadi.

**Muammoning o'r ganilganlik darjasи.** Mamlakatimizda jamiyat ideoSferadagi yangilanish va o'zgarishlar sohasidagi o'zgarishlar masalasinining turli jihatlari, jamiyat rivoji

va milliy g'oyadagi yangilanishlarning o'zaro dialektik aloqadorligi, demokratik jamiyatda ideologiyaning roli masalalarini M.Quronov, A.Saidov, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, I.Ergashev, N.Shermuhamedova, A.Erkayev, F.Musayev, B.S.Turdiyev singari tadqiqotchi, faylasuf olimlarimiz o'rganishgan.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, analiz, sintez, sosiologik so'rov, tarixiylik, o'zaro aloqadorlik usullaridan foydalanildi.

**Muhokama.** Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, o'tgan yillar tarix uchun bir lahma bo'lsa-da, O'zbekiston uchun muhim davr bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov demokratik jamiyat qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni ma'naviy-mafkuraviy tiklanish bilan uyg'un holatda olib borilishi kerakligini ilmiy asoslab berdi. Bu masala Islom Karimovning mamlakatimizda yangi jamiyat taraqqiyoti ideosferasing ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatidan fundamental dastur bo'lgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida asoslab berildi. Unda mustaqillikdan so'ng O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-mafkuraviy sohasidagi strategik vazifalarini aniq belgilab berildi. Asardagi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan fikrlar o'zining amaliy isbotini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlab berdi.

Islom Karimov milliy kamolot yo'lini ko'rsatar ekan, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi, deb uqtirgan edi. Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviyat va iqtisod taraqqiyotimizning ikkita mustahkam qanotiga aylandi. Ushbu asarda Birinchi Prezidentimiz mamlakatimizni ma'naviy yangilash va rivojlantirishning o'ziga xos yo'lini aniq qilib ko'rsatib bergen: "O'zbekistonni yangilanish va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik" [1].

Biz yuqorida sanab o'tgan to'rt asosiy ma'naviy negizlar o'zaro uyg'unlikda rivojlanib O'zbekiston taraqqiyoti yo'liga xizmat qiladi. Ushbu to'rt ustun mustaqillik yillarida O'zbekistonning kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qildi. Jamiyatning yangilanishida ma'naviyatning beqiyos kuchga ega ekanligi inobatga olinib, ushbu ko'p qirrali tushunchani xalqimiz, yosh avlod ongiga sof holda singdirishda mamlakatimizda yuqorida keltirilganlarga rioya etilayotganligini mammuniyat bilan qayd etish lozim.

Jamiyat ideosferasining yangilanishi milliy tiklanishdan – milliy yuksalish ezgu maqsad sari borishimiz uchun muhim hayotiy zaruriyatdir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ilmiy-nazariy asoslab berilgan ma'naviy yangilash va rivojlantirishning konseptual g'oyalari bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan chuqr islohotlar buning yorqin tasdig'idir.

Biz bugun milliy taraqqiyotimizning yangi yo'liga chiqib oldik. Endigi muhim vazifa milliy ma'naviyatimizni demokratik qadriyatlarga uyg'un holda takomillashtirish yo'lidan borishdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharaflı vazifadir" [2].

Yangi jamiyat ideosferasini millatimiz ma'naviy dunyosining tarkibiy qismiga aylantirish, boshqacha aytganda, uni ijodiy o'zlashtirish, unga yangi mazmun va ma'no berish demokratik taraqqiyotimizning bir tomoni hisoblansa, bu jarayonning ikkinchi, yanada ahamiyatli tomoni, jamiyat ideosferasining yangilanishi, betakror va noyob hodisalarning paydo bo'lisi, umuminsoniy ma'naviyatning yangidan-yangi demokratik negizlarga tayanilishidir. Bu jarayonsiz jamiyatning ideosferasi yuksalishini ta'minlab bo'lmaydi.

Har qanday jamiyat ideosferasining qiyofasi ayni ana shu jamiyat tizimi, uning qanday g'oyalar va maqsadlarga ergashayotgani, qanday tafakkur asosida qaror topayotgani bilan bog'liq. O'zbekiston tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la himoya qilingan, uning haq-huquqlari har tomonlama kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. Bu, albatta, inson ongi va tafakkurini o'zgartirish orqali turmush tarzini yangilash singari qator murakkabliklar, qiyinchiliklar, ziddiyatlarni yengib o'tishni taqozo etadi [3].

Ma'naviy yangilanish avvalo bizga meros qolgan milliy ma'naviyatimiz negizlaridan imkonи boricha ko'proq bahramand bo'lisl va har bir insonning o'zini millat, bashariyat, borliqqa nisbatini haqqoniy anglashida, shunga muvofiq faoliyat ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. O'zbekistonning milliy ma'naviy-madaniy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga ehtiyoj katta. Shunday ekan, O'zbekistonni yanada rivojlantirish va yuksaltirish yo'lida moddiy-ma'naviy merosimiz, negizlarimiz, boy demokratik qadriyatlarimiz katta ahamiyatga ega.

Bugungi taraqqiyot yo'lida insoniyatning olamni anglashi, undan umumbashariy manfaatlari yo'lida foydalana olishi, har bir xalqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'naviy yangilanishning demokratik negizlari shaklida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda olib borayotgan strategik siyosatdan ko'zlangan oliy maqsad – dunyo iqtisodiyoti, dunyo siyosati, dunyo madaniyatida mustahkam tura olishdir. Jamiyatni yangilashda ma'naviyatning arkonlari – adolat, halollik, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni asrashga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratildi. Ularga yangicha mazmun bag'ishlanib, yurtimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun barcha sharoitlar va imkoniyatlar yaratildi [4].

Hozirgi keng qamrovli islohotlar, yangilanish jarayonlari bizdan demokratik tafakkurga yo'g'rilgan qarashlarni talab etadi. Negaki, milliy yuksalish va jahon hamjamiyatida o'zimizning munosib pozitsiyamizga ega bo'lishda oddiy emas, balki innovatsion fikrlaydigan, harakatga chorlaydigan, yangiliklarga munosabat bildira oladigan uyg'oq nigohlar zarur. O'zbekiston ma'naviy taraqqiyotining bosh yo'lini bugungi kunda ma'naviy islohotlar strategiyasi, milliy ma'naviy salohiyatining yuksalishi, yangilanishlar tizimi va mazmunining takomillashuvi, ma'naviy qadriyatlarning inson ruhiy dunyosidagi o'rni va ta'sirining oshishi tashkil etadi. Bunday ma'naviy yangilanishlarning demokratik yutuqlarini ularning jamiyat hayotiga ta'sirining ortgani, ilm-fan, ta'lif-tarbiya, madaniyat va san'atga bo'lgan e'tiborning kuchayganligi kabi ma'naviy yangilanishlarning demokratik xususiyatlarida ko'rishimiz mumkin.

Ayni paytda, jamiyat ideosferasi yangilanishining demokratik jihatlari ma'naviy-madaniy taraqqiyot sur'atlarining shiddat bilan rivojlanayotganligida aks etmoqda. Bu jumladan, innovatsion kashfiyotlar, axborot ko'lamining va ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida band bo'lgan kishilar sonining o'sib borayotganligi, ilmiy faoliyat hajmining har 10-15 yilda ikki barobarga oshib borayotganligi jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ma'naviy-madaniy yangilanishlar jarayonini tekis jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin emas. Bugungi kunda jahon taraqqiyoti erishgan yutuqlardan chetda qolayotgan davlatlar ham yo'q emas. Buning asosiy sabab va omillari, mamlakatdagi demokratik mazmundagi ma'naviy yangilanishlardan chetda qolishi, iqtisodiy taraqqiyotning pastligi, tinchlik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, siyosiy barqarorlikning buzilishida namoyon bo'ladi. Bu milliy-madaniy yuksalishdagi o'ziga xos jihatlarni ifoda etadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ma'naviy yangilanishlar strategiyasini izchil amalga oshirish, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida barqarorlikni ta'minlash davlatimiz siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Mamlakatimizda jamiyat ideosferasidagi yangilanishlarni tizimli tashkil etish, bu boradagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, xalqimiz ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, yuksak vatanparvarlik, sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Bu, o'z navbatida, respublikamizda ilm-ma'rifat, adabiyot, madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lami demokratik islohotlarga yo'l ochmoqda.

Jamiyat ideosferasini yangilash, uni yanada yuksaltirish borasida mamlakatimizda o'ziga xos demokratik tajriba sayqallanib bormoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston - 2030" strategiyasidagi belgilangan vazifalar amalga tadbiq etilib, "Obod xonodon", "Obod ko'cha", "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Obod markaz", "Yoshlar - kelajagimiz" kabi dasturlar, hamda "Beshta muhim tashabbus", "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiysi", "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" xalqimizni yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasida, islohotlar ko'lami mamlakatimizning eng chekka hududlarini ham qamrab olib, hududlarning me'moriy qiyofasini tubdan yangilanishi, hamda xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

E'tiborli jihat, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari, milliy konsepsiyalarning mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam olib borishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori hamda 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarining ahamiyati beqiyosdir.

Prezidentimizning 2017-yil 28-iyulda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Respublikamizda Ma'naviyat targ'ibot markazi va Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi qo'shilib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi. Bu markaz davlatimiz ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishida yangi islohotchilik davrini boshlab berdi. Markazning oldiga ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mohiyatini tubdan yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish kabi vazifalar qo'yildi.

Qarordagi yana bir muhim jihat, bu yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markaziga asosiy vazifa sifatida yuklatilganligi bo'ldi [5]. Mazkur vazifalar respublikamiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida ko'p yillardan beri yechimini kutib turgan vazifalardir. Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat kengashiga shaxsan Prezidentimiz, hududiy kengashlarga o'sha mintaqalarning birinchi rahbarlari jamoatchilik asosida rahbarlik qilishi O'zbekiston davlat boshqaruvida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish dolzarb vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yurtimizdag'i ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lami va ta'sirini kuchaytirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash va yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, o'z faoliyatini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali keng miqyosda faoliyat olib borishiga katta imkon yaratib berdi [6].

Ushbu qaror asosida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini samarali olib borishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida o'z huquqiy asoslariga ega bo'lgan "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatni nodavlat notijorat tashkiloti shakllantirildi. Bu jamiyat Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi muassisligidagi nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi. Hozirgi kunda uning hududiy bo'limlari, sohaning yetuk mutaxassislari, madaniyat va san'at arboblari, ijodkor ziyolilardan iborat targ'ibotchilar guruhlari tashkil etilgan. Shuningdek, targ'ibotchilarni moliyaviy va ma'naviy rag'batlantirib borish, jumladan, ularning ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlaridagi ma'ruzalariga haq to'lash maqsadida "Ma'rifat ziyolilari" ko'rik tanlovi, "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoniga tavsiya etish tizimi belgilab qo'yildi. Bu qaror bilan, yurtimizda "Ma'naviyat festivali" va "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" tanlovlari tashkil etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [7]gi qarorlari yurtimizdag'i ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lami va ta'sirini kuchaytirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash va yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, o'z faoliyatini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlar bilan samarali keng miqyosda faoliyat olib borishiga katta imkon yaratib berdi.

**Xulosa.** Bir so'z bilan aytganda, jamiyat ideosferasidagi yangilanishlar falsafiy nuqtayı nazardan o'rganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Jamiyat ideosferasidagi dinamik o'zgarishlar keng ko'lamlı tushuncha bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalaridagi yangilanishlarni o'zida ifoda etadi. Shuningdek, ideosferasidagi yangilanishlar uzlusiz davom etadigan va demokratik jamiyat rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tabiiy, sotsial-madaniy jarayondir.

### Адабиётлар/Литература/References:

- Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: "Ўзбекистон", 1996. –Б.67.
- Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, №19 (7521).

3. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008. –Б.373.
4. Икрамов Ш.Т. Юксак маънавият ва қонун устуворлиги асосида яшаш, элуртга садоқат, адолат, ҳалоллик фазилатларини ва муомала маданиятини камол топтириш.–Т.: “Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси”, 2014. –Б.67.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга қўтариш тўғрисида”ги 28 июль 2017 йилдаги ПҚ-3160 сонли қарори. //Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.09.2017 й., 06/17/5194/0032-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 3 май 2019 йилдаги ПҚ-4307-сонли қарори. //Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.05.2019 й., 07/19/4307/3079-сон.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021-йил 26-мартдаги ПҚ-5040-сонли қарори //<https://lex.uz/docs/5344692>.
8. Sobirovich, T. B. (2024). Jamiyat ideosferasining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg ‘unligi. Yangi O’zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o’rni va rivojlanish omillari, 10(1), 269-272.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Manifestation of civil society in the ideosphere of uzbekistan. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain), 89-92.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº S/7 (4) – 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсуллияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).